
QURBON HAYITI MUNOSABATI BILAN 510 TA OILALARGA OZIQ-OVQAT MAHSULOTLARI TARQATILDI



Xalqimiz orasida e'tiborga muhtoj kishilardan xabar olish, ularning og'irini yengil qilish va beg'araz yordam qo'lini cho'zish azaliy qadriyatlarimizdan biridir.

Qo'shtepa tumanida yurtimizdagi har bayramlarda ehtiyojmand oilalar, yolg'iz keksalar, bir so'z bilan aytganda ijtimoiy ko'makka muhtoj fuqarolarga doimiy e'tibor ko'rsatilib, zaruriy ko'maklar berib kelinmoqda.

Xususan, bugun Qurbon hayiti munosabati bilan tuman hokimi I.Novikov va sektor rahbarlari ishtirokida "Saxovat va ko'mak" jamg'armasi hisobidan tumanda istiqomat qiluvchi ijtimoiy ko'makka muxtoj, kam ta'minlangan, nogironligi bor shaxslar, betob yotgan keksalar jami 510 ta oilalarga oziq-ovqat mahsulotlari tarqatildi. Ushbu mahsulotlar MFY raislari va mahallalardagi hokim yordamchilari tomonidan o'z egalariga yetkazib beriladi.

[Bizni ijtimoiy tarmoqlarda kuzating](#)

[Facebook](#),

2023-06-27 15:15:36